

ONOMASTIKADA TOPONIMIKANING O'RNI

Axmatova Intizora Hasan qizi

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi va jurnalistika

kafedrası o'qituvchisi, PhD

Sharopov Jamshid G'ani o'g'li

BuxDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu kichik tadqiqotda til lug'at tizimidagi shaxs, narsa, hodisa, joy kabilarni atash uchun qo'llanadigan nomlar, ya'ni atoqli otlar tilshunoslikning onomastika sohasida o'rganilishi, onomastika o'zining tarkibiga o'nlab yana "kichik" sohalarni qamrab olishi hamda onomastikada toponimikaning o'rni kabi masalalar yoritib berilgan. Toponimikaning tarkibiga uy, boshpana ma'nosidagi oykonimiya, suv ma'nosidagi gidronimiya, tog' ma'nosidagi oronimiya, koinot ma'nosidagi kosmonimiya va boshqalar kirishi tahlil ostiga olingan.

Kalit so'zlar: onomastika, toponimika, oykonimiya, gidronimiya, kosmonimiya, oronimiya, areal, mikrotoponimiya, makrotoponimiya, onomastik konversiya.

Аннотация: В данном небольшом исследовании рассматриваются вопросы изучения имен собственных, используемых для обозначения лиц, предметов, явлений и мест в лексической системе языка, в рамках ономастики - раздела языкознания. Освещается, как ономастика охватывает десятки "малых" подразделов, а также роль топонимики в ономастике. Анализируется состав топонимики, включающий ойконимию (названия населенных пунктов), гидронимию (названия водных объектов), оронию (названия форм рельефа), космонию (названия объектов космического пространства) и другие разделы.

Ключевые слова: ономастика, топонимика, ойконимия, гидронимия, космонимия, оронимия, ареал, микротопонимия, макротопонимия, ономастическая конверсия.

Abstract: This brief study examines proper nouns used to denote persons, objects, events, places, and other entities in the lexical system of language, as studied in the field of linguistic onomastics. It highlights how onomastics encompasses dozens of sub-fields and explores the role of toponymy within onomastics. The composition of toponymy is analyzed, including oikonymy (relating to houses and shelters), hydronymy (water-related names), oronymy (mountain-related names), cosmonymy (space-related names), and others.

Keywords: onomastics, toponymy, oikonymy, hydronymy, cosmonymy, oronymy, area, microtoponymy, macrotoponymy, onomastic conversion.

Toponimning ta'rifi masalasida lug'atlardagi bayon e'tiborga loyiq. Unda toponimika onomastikaning geografik nomlar (toponimlar), ularning

qo‘llanishi, ma‘nosi, kelib chiqishi, tarkibi, tarqalish areali, davrlar davomida taraqqiyoti va o‘zgarishini o‘rganuvchi bo‘limi ekanligi ta’kidlangan¹.

Ma’lumki, til lug‘at tizimidagi shaxs, narsa, hodisa, joy kabilarni atash uchun qo‘llanadigan nomlar, ya’ni atoqli otlar tilshunoslikning onomastika sohasida o‘rganiladi. Onomastika o‘zining tarkibiga o‘nlab yana “kichik” sohalarni qamrab oladi. Toponimikaning tarkibiga uy, boshpana ma’nosidagi oykonimiya, suv ma’nosidagi gidronimiya, tog‘ ma’nosidagi oronimiya, koinot ma’nosidagi kosmonimiya va boshqalar kiradi.

O‘rganilayotgan obyektning hajmi, ko‘lamiga ko‘ra toponimiyaning makrotoponimiya va mikrotoponimiya tarmoqlari ajratiladi. Makrotoponimiya yirik geografik obyektlar, siyosiy-ma’muriy bo‘linishlarning katta tizimini qamrab oladi. Mikrotoponimiya esa alohida olingan hajman kichik hududlarga mansub geografik nomlarni nazarda tutadi².

Ot so‘z turkumidagi lug‘aviy birliklar atoqli ot va turdosh ot kabi guruhlariga ajratiladi. Atoqli otlar bilan bir qatorda ular bilan aloqador bo‘lgan turdosh otlar ham onomastikaning tadqiq obyekti sanaladi. Toponimlar o‘zi atagan obyekt haqida ko‘plab ma’lumotlarni berishi mumkinki, tilning boshqa hodisasida bunday imkoniyat mavjud emas³.

Toponimika onomastikada o‘ziga xos o‘rin egallaydi. U atoqli otlarning alohida bir guruhi sifatida bir qator lisoniy jihatlariga ega. Qayd etilganidek, toponimikada geografik obyektlarning atoqli otlari o‘rganiladi.

Toponimiyada har bir obyekt o‘z nomiga ega. Ularning alohida yasaliş qonuniyatlari, usullari mavjud. Toponimlar apellyativ leksika (atoqli otlar uchun asos bo‘lgan birliklar) bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, toponimlarda konversiya – ko‘chish usuli keng qo‘llanadi⁴.

Joylarga qo‘yiladigan nomlar kishilar hayotining boshqa jabhalarida kuzatilganidek, ma’lum talab, zarurat sababli paydo bo‘ladi. Geografik obyektga nom berish bir nechta bosqichlardan tashkil topadi. Jumladan, avvalo, ma’lum geografik obyektga nom berish uchun ehtiyoj shakllanishi lozim. Keyingi jarayonda nom taklif etiladi, ushbu nom kishilar tomonidan ma’qullanilgach, toponimik birliklar sirasidan o‘rin oladi. Bunda obyektning bevosita o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari diqqat e’tiborda bo‘lishi lozim. Bu jihatlariga joyning tarixi, geografik o‘ziga xosligi, hudud aholisining etnik belgilari, maishiy hayoti (turmush tarzi, kasb-kori, urf-odatlar va h.k.), obyektning relyefi xususiyatlari, boshqa obyektga yaqinligi kabilar inobatga olinadi.

¹ Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 515.

² Kўrsatilgan lug‘at. – B. 515-516.

³ Смолицкая Г.П. Топонимический ареал и вопросы реконструкции лексической системы языка (на славянском материале) // Вопросы языкознания. – 1978. – № 4. – С.115.

⁴ Адизова Н. Бухоро тумани микропонимларининг лексик-семантик тадқиқи: Филол. фанл. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Бухоро, 2021. – Б.23.

Adabiyotlarda qayd etilganidek, toponimlarning paydo bo‘lishi, turg‘unlashishi yoki, aksincha, almashinishi, ma’nosida turlicha o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi jamiyat taqdiri bilan bog‘liq bo‘ladi. Har qanday toponimik o‘zgarish jamiyatda amalda bo‘lgan til qonuniyatlari doirasida sodir bo‘ladi⁵.

Demak, nom ehtiyoj sababli yuzaga keladi. Bunda quyidagilar asosiy omil vazifasini o‘taydi:

1) geografik obyektning tarixi bilan bog‘liq holatlar: Jig‘achi, Olot, Qorako‘l, Arabxona;

2) aholining etnik qatlami, ya’ni hududda istiqomat qiladigan aholining aksariyat qismini tashkil etadigan kishilarning qaysi xalq, millat, qavm, qabila yoki elat vakili ekanligi: Beklar, Do‘rman, Eshonlar, Kesakli, Olot, Turkmanquduq, Chandir, Arabxona, Urganji, Sayot, Xo‘jalar,;

3) aholining kasb-kori, mashg‘uloti yoki tirikchilik qilishining asosiy manbasi: Dehqonlar, Hunarmandlar, Kosagarlar, Miroy, Mo‘ynachi, Pichoqchi;

4) geografik obyekt joylashgan manzilning relyefi: Toshko‘cha, Qumqishloq, Uchqir, Chuqursoy;

5) geografik manzilning biror yirik obyektga yaqinligi: Labiro‘d, Tayqir, Qirtay;

6) geografik obyektning hajmi, o‘lchami, egallagan maydoni, katta yoki kichikligi: Kattabayot, Katta Do‘rman, Yuqori Janapar, Quyi Janapar, Yuqori Sayot, Quyi Sayot;

7) obyektning davrga munosabati: Eskiqa‘l’a, Yangiturmush, Yangizamon, Yangiqa‘l’a.

Aytish mumkinki, har qanday nom kishilarning turmush tarzi, dunyoqarashi, milliy ma’naviy qadriyatlari natijasida kelib chiqadi. Ular davrlar o‘tishi bilan o‘zining shakli (fonetik tuzilishi), semantikasini o‘zgartiradi.

Maxsus tanlangan nom ma’lum bir geografik obyekt, manzilni boshqa obyekt, dan farqlash uchun qo‘llanadi.

Toponimlar til lug‘at qatlamining bir qismi sifatida xuddi leksik birliklarda kuzatilganidek, tarixiy shakllanish, taraqqiyot va moslashish jarayonlarini o‘z boshidan o‘tkazadi. Ma’lumki, so‘zlar fonetik va orfoepik jihatdan turli o‘zgarishlarga uchraydi. Toponim ham so‘zdir. Shundan kelib chiqib, toponimlarda ham turli lisoniy va nolisoniy omillar ta’sirida ayrim o‘zgarishlar ro‘y berishi tabiiy hol. Respublikamiz hududidagi aksariyat nomlar bir necha asrlik tarixga egaligi bilan ajralib turadi, demak, ularda xalqimiz tarixi, madaniyati, milliy-ma’naviy qadriyatlari o‘z ifodasini topgan. Shu sababli toponimlarni asrash, ularni milliy boylik sifatida ehtiyot qilish nafaqat soha mutaxassislari, balki keng jamoatchilikning mas’uliyatli vazifasi sanaladi.

⁵ Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Т.: Фан, 2006. – Б.15.

Топонимик birliklarda ma'lum ma'nodagi barqarorlik mavjud. Bu haqda fikr bildirgan tadqiqotchilar toponimlarda turli o'zgarish kam kuzatilishi, bu o'zgarishlarning uzoq davrlar davom etishi, o'zgarish ro'y berganda ham asl, avvalgi nom xalq tilida uzoq muddat saqlanishi haqida ma'lumot beradilar⁶.

Hattoki, tarix sahnasidan yo'q bo'lib ketgan xalqlar, millatlar va elatlarning tillariga xos toponimlar asrlar davomida yashab qolishi mumkin. To'g'ri, jamiyatning taraqqiy etishi bilan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'zgarishlar, yangilanishlar yuz beradi. Toponimlar ham ma'lum ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ta'sirida bo'ladi. Demak, toponimlarda ham o'zgarish, yangilanishlar yuzaga keladi. Bunday o'zgarishlar, asosan, kichik geografik obyektlar – mayda aholi punktlariga ko'proq taalluqli bo'ladi. Bunda bir necha aholi punktlarining birlashishi yoki yangi qishloqlarning paydo bo'lishi asosiy rol o'ynaydi. Yirik hududni, tarixiy maskanlarni atash uchun qo'llangan Buxoro, Samarqand, Toshkent, Urganch, Xiva, Shahrisabz, Qarshi va boshqa toponimlarda o'zgarishlar kamdan-kam holatlarda ro'y beradi. Nomlardagi o'zgarishlar xususida fikr yuritir ekan, A.V.Superanskaya ham turli ta'sirlar, o'zgarishlar natijasida ko'pchilik toponimlarning shakli – tovush qiyofasi o'zgarishi haqida ma'lumot bergan⁷. Demak, toponimlarning o'zgarmasligi haqidagi fikrning nisbiy ekanligini inobatga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адизова Н. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи: Филол. фанл. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Бухоро, 2021. – Б.23.
2. Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Т.: Фан, 2006. – Б.15.
3. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 515
4. Муллазоде С.М. Топонимия северных районов Азербайджана. – Баку: Маариф, 1979. – С.137-138.
5. Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М.: Наука, 1985. – С.49.
6. Смолицкая Г.П. Топонимический ареал и вопросы реконструкции лексической системы языка (на славянском материале) // Вопросы языкознания. – 1978. – № 4. – С.115.

⁶ Муллазоде С.М. Топонимия северных районов Азербайджана. – Баку: Маариф, 1979. – С.137-138.

⁷ Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М.: Наука, 1985. – С.49.